

BANOKAT-SHOHRUXIYANING ARXELOGIK JIHATDAN TADQIQ ETILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7824891>

Karimov Abduqodir Rustamovich

O'zMU tarix fakulteti, arxeologiya mutaxasisligi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Toshkent viloyati Oqqa'rg'on tumanida joylashgan, o'z davrida gullab-yashnagan shahar – Banokat-Shohruxiya shahri xarobalari xususida so'z boradi. Maqolada shahar tuzilishi va uning tarixda tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Banokat, Shohruxiya, arxeolog, o'lkashunos, madaniy qatlama, sopol, Qovunchi, rabot, shahriston, ark, xandaq, Qang', jung'orlar.*

Toshkent viloyati Oqqa'rg'on tumani S.Segizboyev qishloq fuqarolari yig'ini hududida Sirdaryoning o'ng sohilida, Ohangaron (Iloq) daryosining Sirdaryoga qo'shilish joyidagi qadimiy karvon yo'li yoqasida bir zamonlar gullab-yashnagan shahar - Shohruxiya shahri xarobalari saqlanib qolgan. Ushbu shaharga Amir Temur hukmronligi davrida asos solingan. Lekin bu shaharning o'rnila dastlab boshqa shahar mavjud bo'lgan. U ilk o'rta asrlarda Banokat nomi bilan atalgan. Shu sababli biz bu tarixiy shaharni Banokat-Shohruxiya deb ataymiz.

Yodgorlik dastlab 1876-yilda o'lkashunoslardan D.K.Zatsepin va N.Pandusovlar tomonidan ko'zdan kechirilib qayd qilingan. XIX asrning oxirlarida Turkiston xavaskor arxeologlar to'garagi a'zolari Ye.T.Smirnov va I.A.Belyayevlar qisman qazishma ishlarini amalga oshirishgan. Shohruxiyaga 1923-yili arxeolog olim I.A.Kastanye tashrif buyurib, yodgorlik to'g'risida ma'lumotlar yozib qoldirgan.²⁸ Yodgorlikda 1934-yilda M.E.Masson ham tadqiqot ishlarini olib borgan. Shahar xarobalari 1966-yilda Toshkent voxasi arxeologik yodgorliklari xaritasiga kiritilgan.

Dastlabki keng ko'lamli arxeologik qazishma ishlari O'zR FA Arxeologiya instituti xodimlari tomonidan, Yu.F.Buryakov rahbarligida 1973-1974-yillarda olib borilib, 1978-1998-yillarda davom ettirilgan.²⁹ Keyingi qazishma ishlari 2002-yilda O'zR FA Arxeologiya instituti va Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti "Vatan tarixi" kafedrasi bilan hamkorlikda olib borilgan. 2004-2006-yillarda Temuriylar tarixi davlat muzeyi tomonidan qisman qazish ishlari amalga oshirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra o'z davrida Toshkent voxasining eng yirik shaharlaridan biri bo'lgan bu shaharda hayot mil.avv.III-II asrlardan boshlanib biroz

²⁸Кухна Шаркия шахри//Тошкент воҳаси археологияси Т., 2011. Б 34-36

²⁹Буряков.Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса.Т., “Фан” 1982 -С. 43-44

tanaffus bilan XVIII asr boshlarigacha davom etgan.³⁰ Shaharga dastlabki tamal toshining qo'yilishi bevosita Qang' davlatining paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liqligi aniqlangan. Shuningdek bu qadimiy shaharning paydo bo'lishiga uning Buyuk Ipak yo'lida va Sirdaryo kechuvida joylashganligi ham qulay sharoit yaratgan.

Dastlab shaharning mudofaa devorlari bo'lmagan. Atrofidagi daryo, shuningdek jarliklar tabiiy mudofaa vositasi ro'lini o'tagan. Ilk o'rta asrlarda (V-VI asrlar) burjli mustahkam mudofaa devori bilan o'rab olingan. Shahar rivojlangan davrda uning hududi 140 gektardan ziyod bo'lib, ark, 3 ta shahriston va raboddan iborat bo'lган.³¹ Ular bir-biridan Sirdaryoga shimoldan oqib quyiladigan qadimgi tabiiy soylar bilan ajralib turgan. Shaharning eng baland joyidan ark o'rinn egallagan. Shu narsa ma'lumki bu ko'hna shaharning ark va shahriston qismlari yaxshi o'rganilmagan. Hozirgi kunga kelib shaharning dastlabki shakllangan qismini Sirdaryo suvlari yuvib borishi natijasida janubi-g'arbiy burchakda joylashgan ark deyarli nobud bo'lган. Shahristonning dioganali bo'yicha yarmi yuvib ketilgan. Arxeologik qazishma ishlari asosan shaharning rabot qismida, hunarmandlar mahallasida olib borilgan. Ularda IX – XII va XV asrlarga oid hunarmandchilik ishlab chiqarish inshootlari va temuriylar davri mudofaa devorlari o'rganilgan. O'rta asrlar Rabotining bir qismi mustahkam devor bilan o'ralgan bo'lib, u yerda 26 ta tepalik, minoralar qoldiqlari joylashgan. Qazishmalar jarayonida ma'lum bo'ldiki, minoralar 2 qavatli va yarim doira shaklida bo'lib, devor chizig'idan tashqariga chiqadi. Bundan tashqari rabotdan yirik tagxona - meva va sabzavotlarni saqlash uchun yarim yer osti gumbazli inshoot ham topilgan. Asosiy bozorlar ham shaharning rabot qismida joylashganligi aniqlandi.

Qazishmalar natijasida turli sopol buyumlar (naqshinkor ko'za, kosa, sirlangan lagan va boshqalar), shisha idishlar, qurol-yarog'lar, tanga pullar va taqinchoqlar topilgan. Ushbu topilmalar Banokat-Shohruxiyada hunarmandchilikning muhim turlari yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Chunonchi, shaharda asrlar davomida zargarlik, to'qimachilik, kulolchilik, shishasozlik, qurolsozlik kabi sohalar ancha rivojlangan. Banokat ustalar va shoirlar, qahramonlar va sayyoohlар shahri sifatida shuxrat taratgan. Buyuk ipak yo'lining tarmoqlaridan birida qulay joylashgan bu shahar X-XII asrlarda Toshkent vohasining eng go'zal va boy aholi istiqomat joylaridan biri bo'lган. Uning shon-shuxrati Buyuk Ipak yo'lidagi ko'plab shahar va davlatlarga keng yoyilgan. Banokatning pishiq gazmollari, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan bejirim ot egarlari jahon bozorlarida dovruq qozongan. Kulolchilik va bezak amaliy san'at buyumlari nihoyatda go'zal bo'lган. Banokatni Toshkent mintaqasining ikkinchi poytaxti deb bejiz atashmagan. Qoraxoniylar davlati uchun tanga pullar zarb qiladigan shaharlar qatorida Banokat ham bo'lган.

O'tgan asrning 70-yillarida Yu.F.Buryakov boshchiligida olib borilgan qazishmalar natijasida shaharning shahriston qismida qalinligi 15 m ga teng bo'lган madaniy qatlama

³⁰Кухна Шаркия шахри://Тошкент воҳаси археологияси.Т.,2011 Б 34-36

³¹Древний и средневековый город восточного Мавераннахра.Т., “Фан” 1990 –С. 79

aniqlangan. Shuningdek bu yerdan magistral suv tarmog'i ochilgan. Bu noyob tizimli inshoat yer ostidan 4 m chuqurlikdan o'tgan.³² Uning tuzilishi shaharda suv ta'minoti ancha yaxshi yo'lga qo'yilganligidan darak beradi.

Qoraxoniylar davrida Banokat mustaqil viloyatning poytaxti sifatida faoliyat yuritadi. Biroq, XIII asr boshlarida Banokat mo'g'ullar bosqini natijasida tanazzulga uchraydi. Manbalarda keltirilishicha shahar 4 kunlik qamaldan so'ng egallanib vayron qilinadi.

Oradan vaqt o'tib, aniqrog'i 1392-yilda vayron bo'lgan Banokat shahri Sohibqiron Amir Temur tomonidan harbiy qal'a sifatida qayta tiklanadi va Amir Temurning kenja o'g'li Shohrux sharafiga "Shohruxiya" deb nomlanadi.³³

Shohruxiya temuriylar sultanatining siyosiy hayotida muhim ro'l o'ynagan. Shahar mamlakatning shimolidagi istehkomi bo'lib, shimoliy hududlarga amalgalashiriladigan harbiy yurishlar mana shu yerdan boshlangan. Chunonchi, Amir Temur Xitoya yurishga otlanganda qo'shining asosiy qismi Shohruxiyada to'plangan. Sohibqiron vafotidan keyin ham temuriylarning Oltin O'rda bilan kurashida Shohruxiya muhim strategik maskan vazifasini o'tagan. Shohruxiyadagi kulolchilik xumdonlari, turar joy qoldiqlari, 2 qavatli burjlar olib o'rganilgan. Topilmalar orasida po'lat Sovut, dubulg'a, shaxmat donalari, sirlangan turli sopol idishlarning borligi temuriylar madaniyati va san'atini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Shahar 1502-yilda Shayboniylar tomonidan egallangan va ularning Toshkent mulki tarkibiga kiritilgan. Shohruxiyada, odatda, valiahd shahzoda noib bo'lgan. Chunonchi, Suyunchxo'jaxon vafotidan so'ng taxtga o'g'li, Shohruxiya hokimi Keldi Muhammad o'tirgan.

Shohruxiyaning iqtisodiy, harbiy-ma'muriy mavqeい XVII asr oxirigacha baland bo'lgan. Lekin XVIII asr birinchi yarmidagi o'zaro ichki kurashlar va jung'orlar xujumi natijasida tanazzulga uchragan.³⁴ Lekin, 1812-1813-yillarda hind sayyohi Mir Izzatulloh Sirdaryo bo'yidagi shaharlar qatorida Shohruxiyani tilga olib o'tgan. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, 1863-1864-yillarda Sirdaryoning toshishi natijasida «suv moziy podshohlarining saroyi va o'tmish xoqoniy kutubxonaga yetib, o'rnidan ko'tarib ketgan. Sirdaryoga qulab tushib, taxminan ming jild kitob suvgaga cho'kib ketgan».

Ma'lum muddatli inqirozlar bilan sal kam 20 asr davomida faoliyat yuritib, vohaning yirik shahar markazlaridan biri bo'lgan Banokat-Shohruxiya nafaqat Toshkent qolaversa, butun Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan shaharlardan biri bo'lganligi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

³² Буряков Ю.Ф. По древним караваным путям Ташкентского оазиса Т., "Фан", 1978. -С 14

³³ N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya. T. "Fan va texnalogiya" 2011. В 121

³⁴ Буряков Ю.Ф. По древним караваным путям Ташкентского оазиса Т., "Фан", 1978. С 16

1. Буряков.Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Т., “Фан”, 1982
2. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya. Т., “Fan va texnalogiya”, 2011
3. Буряков Ю.Ф. По древним караванным путям Ташкентского оазиса. Т., “Фан”, 1978
4. Буряков.Ю.Ф. Канка и Шахрухия. Древние города Чача и Илака на Велоком шелковом пути. Т., 2011
5. Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (историо-археологический очерк Чача-лака). Т.,1975
6. Древний и средневековый город восточного мавераннахра. Т., “Фан”, 1990